ВНЕДРЕНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СЕЛЬСКОЕ ХОЗЯЙСТВО: ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ	1010
<i>Айтымбетов Султанбек Дуйсенбаевич</i>	
DOLOTA DETALIGA QO'SHIMCHA ISHLOV BERIB RESURSINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1016
<i>Qosimov Karimjon, Qodirov Nazirjon Ulug'bekovich, Yusupov Asrorbek Rafiqjon o'g'li</i>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASINI TA'MINLASHDA RAQAMLI INFRATUZILMANING ROLI.....	1019
<i>Eshpo'latova Hilola Bozorboy qizi</i>	



MICROSOFT ACCESS ASOSIDAGI QAROR QABUL QILISH TIZIMI ORQALI LABORATORIYALARDA “ISO 9001:2015” VA “ISO/IEC 17025:2017” STANDARTLARINI JORIY ETILISH DARAJASINI BAHOLASH	1025
Mamajonov Abduvohid Abduraxmonovich, Abdujabborov Obidjon Oribjon o'g'li	
AGROSANOAT MAJMUASIDA INNOVATSION RIVOJLANISH: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY YO'NALISHLAR	1032
Aksakalov Ravshanjon Dolimjonovich	
ENTROPIYA ASOSIDA MA'LUMOTLARNI SIQISH ALGORITMLARINI TAHLIL QILISH	1038
Jovliyeva Dilnoz Mustofa qizi	
SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA RAQOBAT RAZVEDKASINING KONSEPTUAL MODELI	1043
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	
YENGIL AVTOMOBIL UCHUN YONILG'I SARFINI KAMAYTIRISHGA QARATILGAN ECO-HARAKAT REJIMLARINI NAZARIY ASOSLASH USLUBI	1048
Fattohjonov Bekzod Rasuljon o'g'li, Ro'zimov Sanjarbek Komilovich, Ravshanbekov JaxongirAlisher o'g'li, Muxitdinov Akmal Anvarovich	
AQSHNING ILG'OR TAJRIBASI ASOSIDA IKKIYOQLAMA SOLIQQA TORTISHNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1058
Rajapov Shuxrat Zaripbayevich	
IJTIMOY HIMOYA KATEGORIYASINING TRANSFORMATSON RIVOJLANISHI	1067
M.Sh.Raximova	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA AUDITORLIK TEKSHIRUVINI TASHKIL ETISH VA AUDITORLIK XULOSASINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY HAMDA AMALIY ASOSLARI.....	1072
Ibayev Xo'jabek, Ergashev Olloyor Furqat o'g'li	
IPAK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH JARAYONINING TEXNOLOGIK VA SIFAT KO'RSATKICHLARI	1077
Mahmudov Umidjon Bahodir o'g'li , Turdialiyeu Umid Muxtaraliyevich, Sulaymonov Sharifjon Abdumanabovich	
QORAQALPOG'ISTONDA RAQAMLI TADBIRKORLIK EKOTIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA INNOVATSION FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISH.....	1085
Babanazarova Gulzar Ziuatdinovna	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RAG'BATLANTIRISH ORQALI HUDUDLARNI IQTISODIY RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	1089
Ibragimova Ma'mura Muxiddinovna	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINI RIVOJLANTIRISH MODELLARI VA ULARNING AHAMIYATI.....	1094
Abduraimov Dilshod Muratkulovich	
ИССЛЕДОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ КАРАКАЛПАКСТАНА В УСЛОВИЯХ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СТРУКТУРЫ	1098
Оспанова Феруза Базарбаевна	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	1103
Saidrahmatova Zuhraxon Saidazim qizi	
INVESTITSIYA DASTURLARINI BOSHQARISHDA RAQAMLI MENEJMENT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEXANIZMLARI.....	1107
Axmedova Dilnoza Muzaffarovna	
ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА РЫНОК ТРУДА В УЗБЕКИСТАНЕ: ВЫЗОВЫ, ТЕНДЕНЦИИ И СТРАТЕГИИ АДАПТАЦИИ	1112
Хусайнов Р.Р., Кариева Л.С., Загидулина К.Р.	
KONUSSIMON SHAKLDAGI TIBBIY ENDOPROTEZLAR UCHUN TAYYOR SHAKLGA YAQIN ZAGOTOVKALAR OLIISHNING RESURS TEJAMKOR TEXNOLOGIYASI	1121
Umarova Maxmuda Abdugafarovna, Karabayeva Lola Xasanovna	



KONSOLIDATSIYALASHGAN MOLIYAVIY HISOBOTNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI	1125
Mahmudova Nargiza Davlat qizi	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФИНАНСИРОВАНИЯ ИИ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ	1129
Даниярова Улбосин Куатбаевна	
ASSESSING THE IMPACT OF DIGITAL ECONOMY TECHNOLOGIES ON REGIONAL PRODUCTION, SERVICE SECTOR DEVELOPMENT, AND EMPLOYMENT	1135
Kurbonova Malika Akhmad kizi	
ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ И ТЕХНОЛОГИИ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ВТОРОМУ	1140
Ходжаева Хадия Сулейманова	
IMPROVING INTEREST RATE RISK MANAGEMENT PRACTICES IN COMMERCIAL BANKS AND ITS PRIORITIES	1146
Seitnazarov Daniyar Baxadirovich	
KAM QAVATLI TURAR-JOY BINOLARIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA GIPSOKARTON KARKAS DEVORLARINING USTUNLIGI	1151
Mirzaxonova Mexribon Marat qizi, Raxmonova Mahliyoxon Avazjon qizi, Baratova Mushtariybegim O'tkir qizi	
O'ZBEKISTON IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA ENERGIYA TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNI PROGNOZLASHDA ARIMA MODELIDAN FOYDALANISH.....	1159
Kuralbayev Jo'rabek Aybekovich	
IPO ORQALI KAPITAL JALB QILISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI	1163
Mamatmurodov Alisher Saparboyevich	
ВОЗДЕЙСТВИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ НА РАЗВИТИЕ БИЗНЕСА В УЗБЕКИСТАНЕ	1172
Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна	
YANGI TITIB-TA'MINLAGICH TA'SIRIDA PAXTANI TITILISH JARAYONINING NAZARIY TAHLIL NATIJALARI	1178
Qurbanbaev Elyor Baxtiyarovich, Sobirov Doniyor Xolmurodovich	
TIJORAT BANKLARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBALARI.....	1183
Uralov Shavkat Makhramovich	
INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI.....	1188
Tuychiyev Abduraxmon G'ofurovich	
AGROTADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA EKSPORT LOGISTIKASI VA TA'MINOT ZANJIRINI OPTIMALLASHTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI	1193
No'monov Otabek O'rmonjon o'g'li	
QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA INQIROZ SHAKLLANISHIGA MAKROIQTISODIY VA TARMOQ OMILLARINING TA'SIRI.....	1198
O'rinboyev Doniyorjon Baxtiyorjon o'g'li	
5LP LINTERIDAGI CHIGIT ARALASHTIRGICHNI MODERNIZATSIYA QILISH BO'YICHA BAJARILGAN ISHLARNING TAHLILI VA TADQIQOT YO'NALISHLARINI BELGILASH	1204
Nazirov Raxmatjon Rasulovich, Karimov Maxmud Raxmatovich, Abduqahorov No'monbek Oybek o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGIDA BUG'DOY YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA UNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRI	1209
Azamqulov Nurbek Ulug'bek o'g'li	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT XARAJATLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	1215
Fayziyev Rabim Alikulovich, Tohirova Zarifa Shuhrat qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1221
Ajibayeva Raiiya Maxsutovna	



CHAKANA SAVDO TARMOG'INING MILLIY IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI VA BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	1225
G'aybullayev Sarvar O'ktam o'g'li	
MEHNAT BOZORI STRUKTURASI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	1232
Soatmo'minova Zarnigor Olimjon qizi	
KORXONALAR AUDITIDA BLOKCHEYN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	1237
Tuyinov Botir Ismatovich	
THE ROLE OF NATIONAL MENTALITY AND VALUES IN INSTITUTIONAL TRANSFORMATION PROCESSES.....	1243
Abdulmajeed Nabeel Azouz	
ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ HR-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПЛАТФОРМ: ВЫЗОВЫ И РЕШЕНИЯ.....	1250
Амирджанова Ситора Сунатовна, Шаюсупова Наргиза Тургуновна, Исомухаммедов Исроил Исомухаммадович, Урозбоев Хайрулла Муродбойевич, Маматкулов Хумоюн Бобирович	
HUDUDLARNING MOLIYAVIY MUSTAQILLIGINI OSHIRISH VA MAHALLIY BOSHQARUV VAKOLATLARINI KENGAYTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY SAMARADORLIGI: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL	1255
Sharipov Abror Komilovich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM VA MEHMONXONA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION SIYOSAT	1260
Shokirov Firdavsbek Ulug'bekovich	
HUDUDIY RIVOJLANISHNI BAHOLASH METODOLOGIYASINING ILMIY MUAMMOLARI	1265
Sattorov Sanjar Abdumurodovich	
TRANSPORT TIZIMIDA YO'LOVCHI TASHISHNI TASHKIL ETISHNING ILG'OR XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	1271
Sevara Aytieva Allaberdivna	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA LIKVIDLIKNI QOPLASH ME'YORI (LCR) DINAMIKASI VA LIKVIDLIK BOSHQARUVI SAMARADORLIGI	1279
Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN CHAKANA BANK XIZMATLARINI KO'RSATISHNING JORIY HOLATI TAHLILI	1286
Xikmetov Nodirbek Ikromovich	
O'ZBEKISTONDA TARIXIY-MADANIY TURIZM DESTINATSIYALARINING HUDUDIY RIVOJLANISHI VA SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH	1293
Ibroximov Nodirbek	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA AHOLINI IJTIMOY TA'MINOTINI TARTIBGA SOLISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARI.....	1299
Xusanov Baxodir Sheraliyevich	
QURILISH KORXONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	1302
Yahyoyev To'liqin Ismatulla o'g'li	
QASHQADARYO VILOYATIDA SUG'URTA XIZMATLARI RIVOJLANISHINING STATISTIK TAHLILI.....	1306
Ismoilov Sherzod Ismoil o'g'li	
ANALYSIS OF THE EFFECTIVENESS AND CURRENT STATE OF INVESTMENTS IN HUMAN CAPITAL IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.....	1310
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
MANAGEMENT SYSTEM TRANSFORMATION AS A STRATEGIC DRIVER OF SUSTAINABLE PRODUCTION EFFICIENCY IN INDUSTRIAL ENTERPRISES	1317
Kodirov Bekzod Khomidjonovich	



O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISH SHAROITIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMLARINI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	1322
O'ktamova Nargiza Narzulla qizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MOLIVAVIY BOSHQARUV TIZIMLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INSTITUTSIONAL VA INNOVATSION MEXANIZMLARI	1327
Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li	
MINTAQANING TURISTIK VA DAM OLIISH MAJMUASINI RIVOJLANTIRISHNI BOSHQARISH.....	1332
Q.A. Musaxanov	
CHORVACHILIK INFIRATUZILMASI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH	1336
Nurmanov Sherzod Xujayarovich	
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ЛИНГВИСТИЧЕСКОГО ТУРИЗМА И ВОЗМОЖНОСТЬ ЕГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	1340
Усманова Диляфруз Каршиевна	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLAR BAZASINI KENGAYTIRISHDA SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINING METODOLOGIK ASOSLARI.....	1344
Sharopov Dilshodjon Raxmatullayevich	
O'ZBEKISTONDA SUG'URTA TASHKILOTI RISKLARINI BAHOLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY VA AMALIY JIHATLARI	1351
Sattorov Shohrux Maxmudjon o'g'li	
AUDITORLIK DALILLARINI TO'PLASH HAMDA UMUMLASHTIRISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1358
I.Yeshpanov	
O'ZBEKISTONDA O'RMON XO'JALIGINI INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA MOLIVALASHTIRISH	1365
Karimov Dilshod Turabboevich	



O'ZBEKISTONDA O'RMON XO'JALIGINI INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA MOLIYALASHTIRISH

Karimov Dilshod Turabboevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Mustaqil izlanuvchisi

Email: dilshod_karimov-90@list.ru

ORCID: 0009-0007-7018-6137

Annotatsiya: Ushbu ishda O'zbekistonda o'rmon xo'jaliklarini moliyalashtirish holati, uning tahlili va samaradorligini baholash masalalari ko'rib chiqiladi. Mamlakatdagi tabiiy o'rmon maydonlarining kamayishi va ekologik muvozanatning buzilishi fonida o'rmon xo'jaliklariga ajratilayotgan moliyaviy resurslarning samarali boshqarilishi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, moliyalashtirish samaradorligini baholash uchun qo'llanilayotgan mezonlar, monitoring tizimlari va ularning amaliyotdagi holati tahlil qilinadi. Mazkur ilmiy maqolada O'zbekistonda o'rmon xo'jaliklarini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish masalalari kompleks yondashuv asosida tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida monitoring mexanizmi, davlat-xususiy sheriklik, PES modeli va BIOFIN konsepsiyasi asosida to'rtta ilmiy yangilik ishlab chiqilgan. Natijada ekologik loyihalar samaradorligini 12 foizga, investitsiyalar hajmini esa 15 foizga oshirish imkoniyatlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: o'rmon xo'jaliklari, investitsiya, PES, BIOFIN, monitoring, DXSh moliyalashtirish, ekologiya, davlat budjeti, xususiy sektor, xalqaro donorlar, moliyaviy samaradorlik, monitoring, investitsiyalar, subsidiya, barqaror rivojlanish, moliyaviy islohotlar, KPI tizimi, jamoatchilik ishtiroki.

Аннотация: В данной работе рассматриваются вопросы состояния финансирования лесного хозяйства в Узбекистане, его анализа и оценки эффективности. На фоне сокращения природных лесных площадей и нарушения экологического баланса особую актуальность приобретает эффективное управление финансовыми ресурсами, направляемыми в лесное хозяйство. Также анализируются критерии оценки эффективности финансирования, системы мониторинга и их практическое применение. В данной научной статье вопросы совершенствования системы финансирования лесного хозяйства в Узбекистане исследованы на основе комплексного подхода. В ходе исследования разработаны четыре научные новации на основе механизма мониторинга, государственно-частного партнерства, модели PES и концепции BIOFIN. В результате обоснованы возможности увеличения эффективности экологических проектов на 12 процентов, а объема инвестиций — на 15 процентов.

Ключевые слова: лесное хозяйство, инвестиции, PES, BIOFIN, мониторинг, государственно-частное партнерство, финансирование, экология, государственный бюджет, частный сектор, международные доноры, финансовая эффективность, инвестиции, субсидии, устойчивое развитие, финансовые реформы, система KPI, участие общественности.

Abstract: This study examines the current state of financing in the forestry sector of Uzbekistan, including its analysis and efficiency assessment. Against the backdrop of declining natural forest areas and ecological imbalance, effective management of financial resources allocated to forestry has become increasingly important. The study also analyzes the criteria used to evaluate financing efficiency, monitoring systems, and their practical implementation. The article explores the improvement of the forestry financing system in Uzbekistan based on a comprehensive approach. During the research, four scientific innovations were developed based on the monitoring mechanism, public-private partnership, PES model, and BIOFIN concept. As a result, the potential to increase the efficiency of environmental projects by 12 percent and the volume of investments by 15 percent has been substantiated.

Keywords: forestry, investment, PES, BIOFIN, monitoring, public-private partnership, financing, ecology, state budget, private sector, international donors, financial efficiency, investments, subsidies, sustainable development, financial reforms, KPI system, public participation.

KIRISH

Bugungi kunda o'rmon xo'jaligi mamlakat ekologik barqarorligini ta'minlash, bioxilma-xillikni saqlash hamda iqlim o'zgarishlariga moslashuv jarayonlarida muhim strategik tarmoq sifatida namoyon bo'lmoqda. Jahon amaliyotida o'rmon resurslarini samarali boshqarish, ularning iqtisodiy va ekologik funksiyalarini uyg'un rivojlantirish hamda barqaror moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, o'rmon xo'jaligida innovatsion yondashuvlar, raqamli texnologiyalar va zamonaviy boshqaruv usullarining qo'llanilishi ushbu sohaning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonda ham o'rmon xo'jaligini rivojlantirish, ekologik muvozanatni saqlash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, xalqaro tajriba va ilg'or amaliyotlarni joriy etish, davlat-xususiy sheriklik asosida investitsion loyihalarni kengaytirish hamda o'rmon resurslaridan iqtisodiy samarali foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, o'rmon xo'jaligini moliyalashtirishning zamonaviy instrumentlarini ishlab chiqish, ekologik xizmatlarning iqtisodiy qiymatini aniqlash hamda ularni amaliyotga joriy etish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'rmon xo'jaligini moliyalashtirish va barqaror boshqaruv masalalari jahon ilmiy adabiyotlarida keng yoritilgan bo'lib, ushbu yo'nalishda ekologik iqtisodiyot, institutsional yondashuvlar va innovatsion moliyalashtirish mexanizmlariga alohida e'tibor qaratiladi. Xususan, Robert Costanza ekologik tizim xizmatlarining iqtisodiy qiymatini baholash orqali ularni milliy hisob tizimiga integratsiya qilish zarurligini asoslab bergan va ekotizim xizmatlari iqtisodiy rivojlanishning muhim omili ekanligini ta'kidlagan. Uning tadqiqotlari ekotizim xizmatlarini monetizatsiya qilish va ular asosida moliyaviy mexanizmlar ishlab chiqishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Herman Daly esa barqaror rivojlanish konsepsiyasi doirasida tabiiy resurslardan foydalanishda iqtisodiy o'sish va ekologik muvozanat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash zarurligini ilgari surgan. U o'rmon xo'jaligini boshqarishda resurslardan ortiqcha foydalanishning oldini olish hamda ekologik chegaralarni inobatga olish muhimligini asoslaydi.

Sven Wunder tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ekologik xizmatlar uchun to'lovlar tizimi — Payments for Ecosystem Services mexanizmi batafsil tahlil qilinib, uning o'rmon resurslarini muhofaza qilish va barqaror moliyalashtirishni ta'minlashdagi samaradorligi ko'rsatib berilgan. Ushbu yondashuv rivojlanayotgan mamlakatlarda o'rmonlarni saqlash va tiklash jarayonlarida muhim iqtisodiy instrument sifatida keng qo'llanilmoqda.

Elinor Ostrom o'z tadqiqotlarida umumiy foydalaniladigan resurslarni boshqarishning institutsional mexanizmlarini ishlab chiqib, o'rmon xo'jaligida mahalliy hamjamiyatlarning ishtiroki samaradorlikni oshirishini asoslab bergan Ostrom 1990. Uning ishlari o'rmon resurslarini boshqarishda davlat, xususiy sektor va jamoatchilik o'rtasidagi hamkorlikning muhimligini ko'rsatadi.

Shuningdek, Food and Agriculture Organization tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlarda o'rmon xo'jaligini moliyalashtirishni diversifikatsiya qilish, xususiy sektorni jalb etish hamda raqamli monitoring tizimlarini joriy etish orqali soha samaradorligini oshirish yo'llari ko'rsatib berilgan. Jahon banki mutaxassislari ham o'rmon xo'jaligini moliyalashtirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish va innovatsion moliyaviy vositalarni joriy etish zarurligini ta'kidlab o'tgan.

Yuqoridagi ilmiy qarashlar shuni ko'rsatadiki, o'rmon xo'jaligini barqaror rivojlantirishda ekologik xizmatlarni iqtisodiy baholash, innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish hamda institutsional yondashuvlarni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa milliy darajada o'rmon xo'jaligini samarali boshqarish va moliyalashtirish tizimini rivojlantirish uchun zarur ilmiy asosni shakllantiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar xalqaro tashkilotlar hisobotlari, ilmiy adabiyotlar, statistik ma'lumotlar hamda o'rmon xo'jaligiga oid rasmiy manbalar asosida yig'ildi. Ularni tahlil qilishda qiyosiy tahlil, mantiqiy umumlashtirish, statistik baholash va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Olingan natijalar asosida moliyalashtirish mexanizmlarining samaradorligi kompleks tarzda baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda o'rmon xo'jaligini rivojlantirish va ekologik barqarorlikni ta'minlash yo'nalishida xalqaro moliya institutlari va donor tashkilotlar tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, Jahon banki mutaxassisi Asferachyu Abate tomonidan qayd etilishicha, mamlakatda



amalga oshirilayotgan ekologik loyihalar nafaqat tabiiy resurslarni muhofaza qilish, balki aholining ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini oshirishda ham muhim rol o'ynamoqda. Shu nuqtayi nazardan, Resilient Landscapes for Sustainable Livelihoods in Uzbekistan loyihasi alohida e'tiborga loyiqdir. Mazkur loyiha doirasida o'rmon xo'jaligini institutsional jihatdan mustahkamlash, raqamli monitoring tizimlarini joriy etish, mahalliy aholi uchun o'rmon resurslaridan barqaror daromad olish imkoniyatlarini yaratish, shuningdek, dorivor o'simliklar yetishtirish va ularning qiymat zanjirlarini rivojlantirish kabi kompleks vazifalar amalga oshirilmoqda. Ushbu yondashuv o'rmon xo'jaligini iqtisodiy faoliyat subyekti sifatida rivojlantirish bilan bir qatorda, uning ekologik funksiyalarini ham mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, KOICA tashabbusi bilan 2024–2028-yillarga mo'ljallangan loyiha ham o'rmon xo'jaligini modernizatsiya qilishda muhim o'rin tutadi. Mazkur loyiha doirasida smart texnologiyalar asosida o'rmonlarni tiklash, zamonaviy issiqxona infratuzilmasini yaratish, pistachilik yo'nalishida ilmiy-tadqiqot bazasini rivojlantirish, shaharlarni ko'kalamzorlashtirish hamda yuqori sifatli ko'chatlar yetishtirish tizimini joriy etish rejalashtirilgan. Xususan, loyiha doirasida 6 ta smart issiqxona qurish, 1,7 million dona pista ko'chatlari yetishtirish, 5 gektar maydonda ilmiy-tadqiqot stansiyasi tashkil etish, 50 gektar maydonda ko'chat yetishtirish va 300 ming dona daraxt ekish kabi ko'rsatkichlar belgilangan. Yoon Taegseung ta'kidlashicha, ushbu tashabbuslar ekologik muhitni yaxshilash bilan bir qatorda, aholi uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi.

Mazkur xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'rmon xo'jaligini rivojlantirishda innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish, xususan, monitoring tizimlarini kuchaytirish, xususiy sektorni jalb qilish hamda raqamli texnologiyalarni keng qo'llash orqali sohaning samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin.

O'rmon xo'jaligini moliyalashtirishda xususiy sektor ishtirokini yanada kengaytirish ushbu sohada investitsiya faolligini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Shu bois, tadqiqot doirasida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarini keng joriy etish hamda investitsion jozibadorlikni oshirishga qaratilgan kompleks yondashuv ishlab chiqildi. Mazkur yondashuv, avvalo, o'rmon fondi yerlaridan samarali foydalanish orqali xususiy investorlarni jalb qilishni nazarda tutadi. Xususan, o'zlashtirilmagan va suv bilan ta'minlanmagan o'rmon fondi yerlarini jismoniy va yuridik shaxslarga uzoq muddatli ijaraga berish mexanizmini kengaytirish taklif etildi. Bunda investitsiya shartnomalari asosida yer resurslaridan foydalanish orqali investorlar uchun barqaror huquqiy muhit yaratish muhim omil sifatida e'tirof etildi.


Shuningdek, yong'oq mevali daraxtlar (pista, bodom, yong'oq) hamda tez o'suvchi plantatsiyalarni (pavloniya, terak) rivojlantirish maqsadida ijarachilar uchun dastlabki 5–10 yil davomida "nol" stavkali ijara to'lovlarini joriy etish mexanizmi ishlab chiqildi. Mazkur yondashuv investitsiya risklarini kamaytirish va xususiy kapitalni rag'batlantirishga xizmat qiladi. O'rmon xo'jaligi hududlarida ekoturizm va ov turizmi yo'nalishlarida DXSh asosidagi loyihalarni amalga oshirish orqali qo'shimcha moliyaviy manbalarni shakllantirish imkoniyati asoslandi. Ushbu yondashuv o'rmon xo'jaligini nafaqat ekologik, balki iqtisodiy faoliyat turi sifatida rivojlantirishga xizmat qiladi.

Infratuzilmani yangilash va texnologik modernizatsiya qilish ham xususiy sektorni jalb etishda muhim yo'nalish sifatida belgilandi. Xususan, o'rmon plantatsiyalarini mexanizatsiyalash, zamonaviy texnikalarni joriy etish, "Smart Forestry" platformasi orqali raqamli boshqaruv tizimini yo'lga qo'yish hamda resurs tejoyvchi texnologiyalar asosida issiqxona xo'jaliklarini tashkil etish taklif etildi.

Shu bilan birga, dorivor, oziq-ovqatbop va ziravor o'simliklar plantatsiyalarini kengaytirish, o'rmon mahsulotlarini qayta ishlash sanoatini rivojlantirish hamda ishlab chiqarish maydonlarini kengaytirish orqali investitsion jozibadorlikni oshirish imkoniyatlari aniqlandi.

O'rmon xo'jaligida moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish va davlat budjeti bilan uyg'un holda samarali boshqarish sharoitida ekotizim xizmatlarini iqtisodiy jihatdan baholash va monetizatsiya qilish imkoniyatlari kengaymoqda. Shu asosda ekologik xizmatlar uchun to'lovlar tizimi — Payments for Ecosystem Services milliy modeli taklif etildi.

Mazkur model xalqaro amaliyotga asoslangan holda o'rmon ekotizim xizmatlarini moliyalashtirishning to'rt bosqichli mexanizmini o'z ichiga oladi (1-rasm):



1-rasm. Ekotizim xizmatlarini baholash va moliyalashtirishning bosqichma-bosqich mexanizmi¹

Yig'ilgan mablag'lar o'rmonlarni muhofaza qilish, tiklash va ekologik barqarorlikni ta'minlashga yo'naltiriladi. Shu bilan birga, xizmatlar natijadorligi monitoring qilinadi (masalan, o'rmon maydonining kengayishi, suv sifati yaxshilanishi). Mazkur yondashuv xalqaro tashkilotlar, jumladan, Food and Agriculture Organization tomonidan tavsiya etilgan barqaror moliyalashtirish mexanizmlariga mos keladi va rivojlanayotgan mamlakatlarda samarali qo'llanilmoqda.

Ayniqsa, suv resurslari taqchil bo'lgan hududlarda ushbu mexanizm o'rmonlarning suvni tartibga solish va tuproqni muhofaza qilish xizmatlari uchun to'lovlarni joriy etishda muhim iqtisodiy instrument sifatida xizmat qiladi. Natijada, taklif etilgan PES milliy modeli orqali o'rmon xo'jaligini moliyalashtirishning qo'shimcha va barqaror manbalarini shakllantirish imkoniyati ilmiy asoslab berildi.

BIOFIN konsepsiyasi esa BMT Taraqqiyot Dasturi tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u davlatga bioxilma-xillikni saqlashga qaratilgan xarajatlarni tahlil qilish, moliyaviy ehtiyoj va kamchiliklarni aniqlash, shuningdek, yangi moliyalashtirish manbalarini ishlab chiqishda yordam beradi. Mazkur konsepsiya 40 dan ortiq mamlakatlarda, jumladan, Qozog'iston, Qirg'iziston, Hindiston va Ugandada amaliyotga tatbiq etilgan. O'zbekistonda bioxilma-xillik ko'pincha o'rmonlar va tog' hududlari bilan bog'liq bo'lgani bois, BIOFINni joriy etish orqali budjet resurslarini samarali taqsimlash, davlat-xususiy sheriklik modellarini rivojlantirish va ekologik grantlar hamda soliq imtiyozlari orqali moliyalashtirishni kengaytirish imkoni paydo bo'ladi.

Bioxilma-xillikni moliyalashtirish tashabbusi (BIOFIN) global dasturdir. Unda bioxilma-xillikni muhofaza qilish uchun sarflangan xarajatlarning joriy darajasini o'lchash, kelajakda moliyalashtirish ehtiyojlarini baholash hamda moliyaviy vositalar va yechimlardan foydalanish bo'yicha kompleks rejalarni yaratish metodologiyasi ishlab chiqilgan. Ushbu metodologiya sinovdan o'tkazilib, doimiy ravishda takomillashtirilib boriladi. Bular moliyalashtirishni ko'paytirishga, sarf-xarajatlarning zararli ta'sirini kamaytirishga va bioxilma-xillikni nazorat qilishning moliyaviy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

BIOFIN bosqichma-bosqich moslashtirib boriladigan metod orqali mamlakatlarni milliy siyosiy muloqotini va transformatsiya jarayonlarini boshlashda qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu metod biologik xilma-xillikni saqlab qolish uchun moliyalashtirishning joriy yondashuvi va shu sohada milliy rejalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan yondashuv o'rtasidagi tafovutni bartaraf etish maqsadida kerakli resurslarni safarbar qilish va zarur bo'lgan siyosatni aniqlashni nazarda tutadi. BIOFIN tashabbusi orqali moliyaviy resurslarni diversifikatsiya qilish, ekologik xavfsizlikni mustahkamlash va innovatsion loyihalarni rivojlantirish orqali O'zbekiston o'rmon xo'jaligini samarali boshqarish strategiyasini vizual tarzda aks ettiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekistonda o'rmon xo'jaligini moliyalashtirish tizimi hali ham davlat budjetiga yuqori darajada bog'liq bo'lib, qo'shimcha moliyaviy manbalarni jalb etish zarurati mavjud. Xalqaro moliya institutlari, xususan, Jahon banki va KOICA loyihalari o'rmon xo'jaligini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb

1 Manba: muallif ishlanmasi



etayotgani aniqlandi. Shuningdek, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish, "Smart Forestry" texnologiyalarini joriy etish hamda PES va BIOFIN kabi innovatsion moliyalashtirish vositalarini qo'llash orqali soha samaradorligini oshirish mumkinligi asoslandi. Natijada, ushbu yondashuvlar o'rmon xo'jaligiga investitsiyalarni ko'paytirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va moliyalashtirish tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Costanza, R. va boshqalar. The value of the world's ecosystem services and natural capital. Nature, 1997.
2. Daly, H. Ecological Economics and Sustainable Development. Edward Elgar Publishing, 1996.
3. Wunder, S. Payments for Environmental Services: Some Nuts and Bolts. CIFOR, 2005.
4. Ostrom, E. Governing the Commons: The Evolution of Institutions for Collective Action. Cambridge University Press, 1990.
5. Food and Agriculture Organization. Global Forest Resources Assessment. FAO, 2020.
6. World Bank. Forests as Drivers of Growth and Development. World Bank, 2019.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100